


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE**



**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

**60110500 - "Tasviriy san'at va muhandislik" kunduzgi ta'lif yo'nalishi  
uchun**

**Namangan– 2025**

Ushbu dastur “University of Business and Science” oliy ta’lim muassasasining 2025 yil 28-maydagi № 11-sonli Ilmiy Kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

NamDPI “Art pedagogika” kafedrasи  
mudiri prof O‘.E.Abdullayev

NamDPI “Art pedagogika” kafedrasи  
p.f.n dotsenti A.B.Tadjiboyev

**Taqrizchilar:**

NamDPI “Art pedagogika” kafedrasи  
professor v.v.b B.B.Oripov  
NamDU “Tasviriy san’at” katta o‘qituvchisi  
F.SH.Madaminov

## I.Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lif muassasalarini bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to 'g 'risida"gi 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-ton qarori va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi "Oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to 'g 'risida"gi 261-ton qaroriga muvofiq ushbu dastur ishlab chiqilgan.

"60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi kasb-hunar maktablari hamda umumiyo o'rta ta'lif maktablaridagi tasviriy san'at va chizmachilik fanlari dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlaming amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun m o'ljallangan. 60110500 - "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavriat ta'lif yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda tasviriy san'at va muhandislik grafikasining asosi bo'lgan

rangtasvir va chizmachilik fanlaridan amaliy ish bajarib, o'zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

## II. Fanning maqsadi va vazifalari

60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlaming tasviriy san'at va chizmachilik sohasida nazariy bilimlarini amaliyatda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy, grafik ishlar bajaradilar:

1. Tasviriy san'at (rangtasvir). Natyurmort qo'yilmasidagi buyumlaming o'zaro nisbati, havo perspektivasi va rang qonuniyatları, kompozitsiya tuzilishi, yorug'-soya, tus tushunchalari negizida uy-ro'zg'or buyumlari, meva, sabzavotlar gipsli geometrik jismlar, sidirg'a va rangli mato fonida o'ziga qarab qog'oz formatida natyurmort tasvirini akvarel bo'yog'idan foydalanib amaliy ish bajarish malakalarini aniqlashdir.

2. Chizmachilik. Tarkibida tutashma elementlari mavjud bo'lgan detal chizmasini chizish, buyumning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalamda amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.

## III. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

1. Abituriyentdan rangtasvir fanidan natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirishi, usq chizig'ini to'g'ri topishi, predmetlarning hajmi, o'zaro nisbatini to'g'ri topishi, perspektiva qonuniga rioya qilishi, soya-yorug', refleksni to'g'ri topishi, akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanishi, naturadagi buyum hajmlarini to'g'ri aks ettirishi, buyumlardagi soya va yorug'lami to'g'ri aniqlashi, buyumlarning fakturasini (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topishi, qo'yilgan vazifa to'liq bajarishi talab etiladi.

2. Abituriyentdan chizmachilik fanidan tutashma markazini, tutashma nuqtalarini to'g'ri topishi, tutashmani silliq ravon tutashtirishi, berilgan ikki

proyeksiyani to'g'ri ko'chirishi, masshtabni to 'g'ri tanlashi, yetishmovchi proyeksiyani to'g'ri topishi, qirqimlarni to'g'ri bajarishi, aksconometrik proyeksiyani qoidaga rioya qilishi, chizmalarida chiziq turlariqa, oicham lar qo'yishda bajarishi talab etildi. Abituriyent jadval bo'g'ri joylashtira bilishi va ishni sisatli astronomik soat (180 daqiqa) vaqt davomida grafik ish bajaradi. Tasviriy san'sat (rangtasvir) hamda chizmachilik fanlari bo'yicha bajariladigan ish qog'ozning o'chami A3

formatda bo'ladi. Bu ishlami baholash quyidagi tartibda amalgalga oshiriladi: Tasviriy san'sat (rangtasvir) fanidan bajarilgan ishga 10 tadan savol, chizmachilikdan 13 ta savol qo'yiladi va bu savollarga sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sisatiga qarab ball qo'yadilar. Har bir fan bo'yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

Mazkur yo'nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo'yiladigan maksimal ball - 156 ni taskhil etadi,  
Rangtasvir - 93 ball  
Chizmachilik - 63 ball

#### RANG TASVIR

T/r	Savollar mazmuni	Ballar
1	Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgan va konstruktiv qurilishi to'g'ri bajarilgan	0-9 gacha
2	Usq chizig'i to'g'ri topilgan, perspektiva qonun-qoidalariga rioya qilingan	0-9 gacha
3	Qo'yilmadagi buyumlaming hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan	0-9 gacha
4	Qo'yilmadagi buyumlaming fazoviy joylashuvi to'g'ri topilgan	0-9 gacha
5	Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri soydalilanilgan	0-9 gacha
6	Qo'yilmadagi ranglar munosabati to'g'ri topilgan	0-9 gacha
7	Yorug'-soya qonunlariga to'g'ri amal qilingan	0-9 gacha
8	Buyumlarning material-fakturasi (gips, sopol, metall, mato va hokazolar) to'g'ri aks ettiligan	0-10 gacha
9	Qo'yilmadagi buyumlaming yaxlitligi to'g'ri topilgan	0-10 gacha
10	Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilgan	0-10 gacha

Rangtasvir bo'yicha abituriyentlaming to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ballaming umumiy miqdori - 93 ball

## CHIZMACHILIK

T/r	Savollar mazmuni	Ballar
1	Berilgan ikki proyeksiya to'g'ri ko'chirilgan, masshtab to'g'ri tanlangan	0-7 gacha
2	Yetishmovchi proyeksiya to'g'ri topilgan	0-7 gacha
3	Qirqimlar to'g'ri bajarilgan	0-7 gacha
4	Aksometrik proyeksiya to'g'ri boshlangan	0-7 gacha
5	Aksometrik proyeksiya tugallangan	0-7 gacha
6	Aksometriyada qirqim to'g'ri bajarilgan	0-7 gacha
7	Chizmalar chiziq turlariqa rioya qilingan	0-7 gacha
8	O'lchamlar qo'yishda qoidaga rioya qilingan	0-7 gacha
9	Chizmalar chizma qog'oziga to'g'ri joylashtirilgan va sifatli bajarliga	0-7 gacha

Chizmachilik bo'yicha abituriyentlarning to'plashi mumkin bolgan maksimal ball - **63 ball**

### V. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60110500 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'limga yo'nalişiga hujjat topshirigan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda, har bir fandan 3 astronomik soat (180 daqiqa) vaqt davomida rangtasvir fanidan naturmort qo'yilmasini xanda chizmachilik fanidan grafik ish bajaradilar. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruuhlar 20-30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruuhlar bo'yicha o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihon rangtasvir fanidan molbert va planshetlar bilan jihozlangan xonalariда hamda chizmachilik fanidan stol-stul bilan jihozlangan xonalariда o'tkaziladi.

### Tasviriy san'at (rangtasvir).

Tasviriy san'at nazariyasini asosida naturmortning o'zaro nisbati, havo perspektivasi qonuniyatlari, kompozitsiya tuzilishi, yorug' va soyta tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy-ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar rangli mato sonida o'ziga qarab tasviri rangda bajariladi.

**Chizmachilik.** Chizmachilik fanidagi vazifalar O'zDStga rioya qilgan holda bajariladi. Buyumning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalamda amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.Bajarilgan ishlami baholash quyidagi

tartibda amalga oshirildi: rangtasvir fani bo'yicha ish to 'liq va to'g 'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (no) balldan 9(10) ballgacha, chizmachilik fanidan ish to'liq va to'g 'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (no) balldan 7 ballgacha belgilanadi.

Fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolaridan tashkil etadi va ular shu ta'lim yo'naliishiiga kadrlar tayyorlovchi kafedralar professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

## **VI. Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyanining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'tzining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.